

GINKGO BILOBA URUG'IDAN KO'CHAT YETISHTIRISH TEKNOLOGIYASI

Qodirov Otabek Abdullaxayevich¹, Ergasheva Nargiza Xoljo'ra qizi²,
Boratova O'g'iloy Qodirjon qizi³

¹Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti katta o'qituvchisi
^{2,3} Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7192612>

Hozirgi kunda dunyo aholisining 50 foizi shaharlarda istiqomat qilib, bu ko'rsatkich 2050 yilga kelib 66 % ga yetadi. Aholi sonining bu qadar tez o'sishi, shaharlar infratuzilmasini yaxshilash va shahar muhitiga chidamli bo'lgan manzarali o'simliklardan foydalanishni taqazo etadi. BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti) ning "Biologik xilma- xillik" to'g'risidagi Konvensiyasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda o'simliklarning 34000 turi yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. Dunyoda turli ekologik muammolarning yuzaga kelishi, iqlim o'zgarishi kabi global muammolar ko'klamzorlashtirishda o'simliklarni tanlashda va atrof-muhitga estetik ko'rinish namoyon qilishda bir qator qiyinchiliklar yaratmoqda. Ginkgo biloba o'simligi urug'laridan ko'chat yetishtirishda dastavval urug'larini unuvchanlik ko'rsatkichlarini aniqladik.

Ginkgo biloba urug'larining unib chiqish ko'rsatkichi.

№	Yopiq muhit sharoiti I variant (kun)				Ochiq muhit sharoiti II variant (kun)			
	1-qator	2-qator	3-qator	4-qator	1-qaytariq	2-qaytariq	3-qaytariq	4-qaytariq
	40	40	40	40	40	40	40	40
Oddiy suv	36	34	34	38	33	32	29	34
	90%	85%	85%	95%	82,5%	80%	72,5%	85%
	Σ88,75%				Σ80%			
Gumat +7	36	38	37	38	34	33	34	34
	90%	95%	92,5%	95%	85%	82%	85%	85%
	Σ93,125%				Σ84,375%			

(Izox: har bir qator va qaytariqda 40 tadan urug' uyalari bor)

Sug'orish ishlari o'simlikning vegetatsion holatiga qarab olib borildi, yani tuproqni nam holatini saqlashiga qarab sug'orish ishlari olib borildi. 18-24 kundan so'ng urug'lar unib chiqdi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, birinchi variantda ekilgan urug'larning unib chiqish tezligi boshqa variantlar urug'larining unib chiqish ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli sonda ko'pligini ko'rish mumkin. Har bir sinalayotgan variantlarda o'rtacha 160 donadan ko'chat yetishtirish uchun Urug'lar tuproqqa

qadalgan bo'lib, unib chiqish ko'rsatkichi bo'yicha yuqori natijani gumat+7 prepatati bilan ishlov berilgan va ayni paytda yopiq issiqxona sharoitida undirishga qo'yilgan variantimizda umumiy hisobda 142 dona uyalardan Urug'lar unib chiqdi. Urug'ni ekilgandan boshlab 1-variantimizning o'simliklari 18-19 kun deganda unib chiqdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, 24 soat mobaynida gumat +7 ni 10% li suvli eritmasiga bo'ktirib so'ngra ekilgan variantdagi Urug'lar unuvchanligi yuqori bo'lib, statifikatsiya tadbirlariga to'la amal qilish Urug'larning sifatli va bir tekisda unib chiqishiga erishish mumkin ekan.

Ochiq muhitda egatlab ekilgan ginkgo Urug'lari ekilgan kundan boshlab 21-kunidan unib chiqqa boshladi. Urug' ekilgan uyalardan o'simlik Urug'larini to'liq unib chiqishiga turli xil ta'sirlar natijasida erishib bo'lmadi. O'rta hisobda yopiq muhit sharoitida ekilgan ginkgo Urug'larining 94-96% i unib chiqdi. Eng yuqori unuvchanlikka erishilgan variantimiz ham aynan mana shunisi bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda. – B. 25–28.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida" gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 2018 yil 16 apreldagi sessiyasi. – Toshkent, 2018.
3. T.E.Pallas , akademik E.F.Zuyev. 2015 y. "Opisanie rasteniy Rossiyskogo gosudarstva".
4. A.F.Minderdorf, K.I.Maksimovich, G.N.Potapin, N.M.Prjevalskiy, S.M.Korjinskiy, V.K.Komarov. (2015) Nikitin bogi.